



SAMARQAND VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI





# SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRILISHI

*(2024-yilning yanvar-fevral  
oylari uchun dastlabki  
ma'lumot)*



## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4 550,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,8 % ni tashkil etdi.

yanvar-fevral  
mlrd. so'm



yanvar-fevral  
FHI, %






■ mlrd. so'm ■ FHI %

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (3 329,3 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (2 901,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





■ ming so'm    ■ o'sish sur'ati, %

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2024-yil yanvar-fevral oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 4 397,5 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,6 % ni, tashkil etdi.




2024-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (42,4 %), Jomboy tumani (11,9 %), Toyloq tumani (6,9 %), hamda Urgut (6,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Toyloq tumanida (112,8 %), Nurobod tumanida (112,0 %) hamda Urgut tumanida (109,7 %) kuzatildi.



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2024-yil yanvar-fevral oylari

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 4,4 martaga, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 18,9 % ga, Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 1,0 % ga hamda Ishlab chiqarish 0,9 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda*



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2023-yilning yanvar-fevral oylarida 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali 13,1 % (14,2 %), o'rta-quyi texnologiyali 19,1 % (14,4 %) va quyi texnologiyalisi 63,6 % (68,4 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,5 % (2023-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 129,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi 11,0 % (2023-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 25,3 % (2023-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 38,4 % (2023-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,5 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-fevral	2024-yil yanvar-fevral	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	19,7	10,9	- 8,8
Paxta tolasi, ming t.	12,7	14,2	1,5
Tozalangan paxta yog'i mingtonna.	2,8	3,2	0,4
Shag'al – ming t.	34,5	67,2	32,7
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna	123,5	106,4	- 17,1
Tamaki – mln. dona	1 489,5	1 566,9	77,4
Piva – ming litr	2 325,0	1 770,0	- 555,0

2024-yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 106,4 tonna (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 13,9 % ga) hamda 10,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (44,6 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

## Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

(2024-yil yanvar-fevral oylarida)

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-fevral oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 466 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 33,1 % ga ko'paygan.



2024-yil

466 dona

2024-yil

133,1 %

2023-yil

350 dona

2023-yil

85,8 %

2022-yil

425 dona


2022-yil

74,4 %

## Avtobuslar ishlab chiqarish

(2024-yil yanvar-fevral oylarida)

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-fevral oylarida 61 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 46,5 % ga kamaygan.



2024-yil

61 dona

2024-yil

53,5 %

2023-yil

114 dona

2023-yil

167,6 %

2022-yil

68 dona


2022-yil

165,9 %






### Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 9,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 126,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 11,0 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 107,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 482,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-fevral oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 2,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 80,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 5,5 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 129,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 241,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-fevral oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 32,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 99,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 28,6 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 92,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 257,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 121,5 % ni tashkil etgan bo'lsa,


2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 72,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 22,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 20,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 83,5 % ni tashkil etgan bo'lsa,


2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,2 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 108,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 976,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kiyim ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 69,5 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 %, fizik hajm indeksi 86,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 106,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.





## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 67,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 134,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 51,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 110,6 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 %, fizik hajm indeksi 108,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 35,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 102,7 % .

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 128,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 70,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 102,2 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni, fizik hajm indeksi 122,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 93,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 36,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 133,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 65,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 103,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,1 %, fizik hajm indeksi 80,8 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 444,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-fevral	2024-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	5 486,5	17 509,9	12 023,4
Issiqlik energiyasi, mln. gkal	1 936,3	2 163,7	227,7



O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-fevral	2024-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	6 883,9	10 706,7	3 822,8
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	14 382,3	18 961,3	4 579,0
Plastmassa chiqindilari, tonna	290,0	372,3	82,3


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % \*



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar



Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm



## Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5 861 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 199 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 20,5 %) Samarqand shahriga, 805 tasi (13,7 %) Urgut tumaniga, 632 tasi (10,8 %) Samarqand tumaniga, 423 tasi (7,2 %) Pastdarg'om tumaniga va 326 tasi (5,6 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### Jami yangi tashkil etilgan

**164** ta

2024-yil yanvar-fevral

**211** ta

2023-yil yanvar-fevral

**323** ta

2022-yil yanvar-fevral



### Jami faoliyat yuritayotgan

**5 861** ta


2024-yil yanvar-fevral

**6 884** ta

2023-yil yanvar-fevral

**8 233** ta

2022-yil yanvar-fevral




## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 863,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 41,0 % ni tashkil etdi.



yanvar-fevral

mlrd. soʻm



yanvar-fevral

ulushi, %



■ mlrd. soʻm    ■ oʻsish surʼati, %